

Raxmanova Istat Muminovna

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Choriyeva Madina To'xtamurot qizi

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası San'atshunoslik (Musiqashunoslik) yo'nalishi
1-bosqich talabasi

«Folklor san'ati bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir»

Sh.M. Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining folklor san'ati, folklor-etnografik jamoalar va ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan. Milliy qadriyatimiz hamda musiqiy folklor tarixi va musiqiy folklorda ta'lim va tarbiya jarayoni. Folklor qo'shiq ijrochiligidan namunalari keng yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Folklor, nomoddiy madaniy meros, arxeologiya, ashula, cholg'u, xalq qo'shiqlari, xalq og'zaki ijodi, qadriyat, umuminsoniy, urf-odat, an'ana, yalla, lapar, doston, do'mbira.

Ma'lumki, an'ana va marosimlar xalqning ulug'vorligini, uning milliy qadr -qimmatini va mehnatsevarlik, erksevarlik, do'stlikka sadoqatni, boshqa xalqlarga hurmat, Vatanga muhabbatini, dushmanga nafrat kabi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Xalqning eng yaxshi an'analari - insonparvarlikni, jamoa bo'lib ishlash va kamtarlikni, mehmondo'stlikni va kattalarga hurmatni, asrlar davomida mehnatkash xalq orasida rasm-rusumga aylangan boshqa ijobiy xislatlarni o'zida gavdalantiradi.

Folklor haqida umumiy tushuncha. «Folklor» atamasi aslida «folk» - xalq va «lore» - donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, «xalq donoligi, xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846- yilda Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo'lladi. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqyosda ilmiy taomilda o'zlashib ketdi. Shunga qaramay, Angliya, AQSh va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda bu mavhum keng ma'noda xalq ijodining barcha sohalarini - xalq poeziyasi, xalq nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, o'ymakorlik, diniy e'tiqodi va odatlarini ifodalasa, boshqa tillarda so'zlashuvchi xalqlarda, asosan, so'z san'atini - xalq og'zaki poetik ijodi tushunchasini ifoda etadi.

Xalq musiqasi tushunchasini ifodalashda «musiqa folklori», xalq san'atining boshqa turlarini, chunonchi, o'ymakorlik, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik (patdo'zlik) singarilar «xalq amaliy san'ati» termini ostida tushuniladi. O'zbek folklorshunosligi tarixida «folklor» istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste'molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «og'zaki ijod» tarzida qo'llanildi. O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, simpatiya va antipatiyasini, orzu va intilishlarini aks ettiradi.

O'zbek xalq badiiy ijodi asrlar davomida yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirtga o'tib kelgan jamoa ijodi maxsulidir. Xalq kuychisi (dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, latifago'y, askiyachilar) jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni aynan so'zma-so'z ijro etmay unga ijodiy yondoshadi. Shuning uchun xam u ijro etayotgan asarlarni hamisha "Xalqniki" deb tan olinadi. Xalq -folklorning ijodkori. Folklor qabila, urug', elat, xalq yoki millatning

mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Uning paydo bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshda ijod g'ayriushuriy holda bo'lgan. Ijodkor g'ayriixtiyoriy tarzda mohiyatni tushunmagan holda ijod etar edi.

Folklorshunoslik sotsiologiya, etnologiya, til, tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Chunki folklor sinkretik so'z san'ati sifatida san'atning barcha turiari bilan chambarchas bog'langan .

O'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri marosim folkloridir. Bu janr o'zining hayotiy yo'nalishi va maqsadi jihatidan ikki

katta turkunga - mavsumiy hamda oilaviy-maishiy marosimlar folkloriga bo'linadi. O'z navbatida bu ikki turkum vazifasi, tuzilishi va poetik tabiati bilan har xil janrlarni qamrab oladi.

Oilaviy - maishiy marosim folklori etnografik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bunga kiradigan marosimlar vazifasi va mazmuni bo'yicha bir necha xilga bo'linadi: a) so'zning sehrgarlik qudratiga asoslangan kinna, badik(gulafsho), burey-burey, avrosh, olqish va qarg'ish kabi qadimiy urf-odatlar; b) bolalarning beshikdagi davri bilan bog'liq - beshikka solish, chilar qochirish kabi udumlar folklori; v) to'y marosimlari faolliklari ifodalovchi yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, to'y olqishlari, oyna ko'rsatar qo'shiqlari kabilar; e) motam marosimi folkloriga mansub yig'i -yo'qlovlar.

Mustaqillik sharofati tufayli ajoyib milliy an'analar urf-odatlar va marosimlarni tiklash boyitish va hayotga keng joriy etish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Ayni vaqtda bir tizimdan boshqa tizimga o'tish davrida xalq an'analari, urf-odat hamda marosimlarini tiklash, rivojlantirish va ommalashtirish nihoyatda murakkab va mas'uliyatlidir. Buni chuqur anglagan holda xalqimizning azaldan ma'lum bo'lgan ahillik, mehr-oqibat, xayr-saxovat, hamdardlik, kamtarlik, shirinsuxanlik kabi fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Folklor barcha san'at turlari ko'rinishlarini o'ziga mujassamlashtirgan. Folklorning bir talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiqlar dutor va doira jo'rligida, chog'uchilar ansambli jo'rligida kuylangan. Boshqa bir folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ertak, afsona, rivoyat, lof, naql, latifa, topishmoq va maqol janrlari shunday xarakterga ega. Folklor qo'shiqlar har bir kasbning o'ziga xos faoliyati natijasidan kelib chiqadi. Xalqning turmush tarzi bilan bog'lanadi. Mehnat qo'shiqlari: o'rim qo'shiqlar, yorg'inchoq qo'shiqlar bo'lsa, chovachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari: «Xo'sh-xo'sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi nomlar bilan yuritiladi. Hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari charx qo'shiqlari va hokazo. Marosim qo'shiqlari folklorshunoslikning eng muhim omillaridan hisoblanadi. O'zbek xalqi barcha xalqlar kabi juda qadimiy boy va xilma-xil an'analarga ega.

O'zbek xalqining folklor janrlari juda xilma - xildir. Har bir vohaning etnik joylashishiga, urf-odatiga qarab folklor janrlari va uslublari turlichadir. Farg'ona vodiysida lapar ko'proq ijro etilsa, alla, yor-yor ijrolari turlicha ijro etiladi. Terma, o'lan ijrolari ham har-xil uslubda ijro etiladi. Alla ijrosi xalq orasida juda keng tarqalgan ijrodir. Allaning har bir bandidan keyin «Alla bolam alla, jonim, bolam, alla» misralar takrorlanadi. «Yor-yor» o'zbek nikoh to'ylari folklorining musiqiy janrlari hisoblanadi. «Yor-yor» nafaqat o'zbeklarda, balki Qirg'iz, Qozoq, Qoraqalpoq kabi turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan. Masalan:

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari o'tlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari tura tursin, yor-yor,

Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.

Folklor an'analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyoqarashi, ruhiy-estetik olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. O'zbekistonda sobiq tuzum yillarida xalq ijodiyoti o'zining qadimiy ijrochilik an'analari va badiiy merosini muayyan darajada saqlab qolgan bo'lsada, o'sha davrning siyosiy qatag'onlari va mafkuraviy tazyiqlari bunday an'anaviy qadriyatlar tizimining ko'pgina poetik tabiatiga salbiy tasir ko'rsatgan edi. Oqibatda, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining ko'pgina qadimiy janrlari, etiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalari, xalq an'analari, sayl va bayramlari bilan aloqador udum va qo'shiqlar, afsona, rivoyat, naqlar unutilayozdi. XX asrgacha yaratilgan o'zbek marosim folklori janrlari o'zining qadimiy an'analari xamda poetik tabiatini mukammal holda saqlab qolgan edi. So'z sehriga asoslangan badiha, kina, olqish kabi janrlari, yil fasllariga aloqador Navro'z, qizil gul sayli, boychechak, "gul sux", birinchi qo'sh chiqarish bilan bog'liq "shox moylar", shuningdek, "yo ramazon", "bahor keldi", yomg'ir chaqirish, shamol chaqirish va uni to'xtatish maqsadida ijro etilgan qadimiy aytim va qo'shiqlarning matnlari xalq og'zaki ijodi namunalariidir.

Shuni aytish joizki, kelajak yoshlarga xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, yashash tarzi, an'analari va umuman olib qaraganda xalqimizning, millatimiz o'tmishi, tarixi va milliy an'alarimiz hamda urf-odatlarimiz singdirishimiz lozim. Prezidentimiz ham shuni ta'kidlab o'tganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Jabborov. O'zbek xalqi etnografiyasi. - T. "O'qituvchi", 1994
2. S. Yo'ldosheva. Xalq urf - odatlari va an'analari. T. "Ijod Dunyosi", 2003
3. I. A. Akbarov, Musiqa lug'ati. Toshkent G'. G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti - 1987 y.
4. F. M. Karamatov, "O'zbek xalq musiqa merosi". Toshkent G'. G'ulom nomidagi nashriyot - 1978 y.
5. M. Jo'rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.
6. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "Pedagogical Requirements for a Modern Music Teacher and His Possibilities of Using Technologies." *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 2.4 (2023): 244-247.
7. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "PREPARING A MUSIC TEACHER TO USE MODERN TECHNOLOGY." *Thematics Journal of Arts and Culture* 6.1 (2022).
8. RAXMANOVA, Istatjon. "MUSIQA TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAVJUD HOLATI." *Journal of Culture and Art* 1.10 (2023): 86-89.
9. Muminovna, Raxmanova Istat. "Pedagogical requirements for a modern music teacher and his possibilities of using technologies." *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА* 2.2 (2024): 217-226.
10. Istat, Muminovna Raxmanova, and To'xtasin Rajabov Ibodovich. "O'QUVCHILAR MUSIQA TARBIYASIDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH." *Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi* 2.2 (2024): 224-232.